

Pisixologiyada yetuklikning o'spirinlik va erta yetuklik davrlarida shaxsning o'g'irlik jinoyatlari sodir qilish shart-sharoitlari, sabab va oqibatlari, shaxslarning o'zini-o'zi anglashdagi determinantlari

**Urganch shaxri bo'yicha IIO FMB TQX JQB boshlig'i podpolkovnik
Xudaybergenov Navruz Baxtiyarovich**

Annotatsiya: Psixologiyada yetuklikning o'spirinlik va erta yetuklik davrlarida shaxsning o'g'irlik jinoyatlari sodir qilishga olib keluvchi psixologik ichki kechinmalari, motivi-maqsadi, sabab-sharoitlari, ruxiyatidagi o'zgarishlar, ruxiyatiga ta'sir qiluvchi psixologik ijtimoiy va iqtisodiy omillari, jinoyat sodir qilishdagi o'zini-o'zi anglash jarayonidagi psixologiyasidagi buzulishlar va determinantlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, yetuklik, jinoyat, o'g'irlik, ruxiyat, sabab, shart-sharoitlar, oqibat, jinoyatchi shaxs, determinant.

Ushbu maqolaning maqsadi. Psixologiyada yetuklikning o'spirinlik va erta yetuklik davrlarida shaxslarning psixologiyasidagi o'zgarishlar, ichki va tashqi ta'sir etuvchi omillar ya'ni oilaviy turmush tarzi hamda ijtimoiy xayot tarzidagi o'zgarishlar natijasida o'g'irlik jinoyatlarini sodir qilishga yetaklovchi sabablar, sharoitlar, omillar, oqibatlar va jinoyatchi shaxsnini shakllanishi xususiyatlari haqida tushuncha berishdir. Shaxslarning ongli ravishda o'g'irlik jinoyati sodir qilgan insonning psixologik holati va o'zini-o'zi anglash jarayonlari determinantlari haqida tushuncha berishdir. O'g'irlik jinoyatlari sodir qilgan shaxs ya'ni jinoyatchi shaxs bilan qanday ishlashni va sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xuquqiy oqibatlarini psixologik anglashi, o'zini-o'zi anglash jarayonlarini o'rganishdir.

Ish huquqni muhofaza qilish organlari, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar uchun shaxslarning kelgusida o'g'irlik jinoyatlari sodir qilinishini oldini olish maqsadida psixologik o'rganishlar sohasida ishlaydigan barcha uchun foydali bo'lishi mumkin.

Аннотация: В психологии - психологические внутренние переживания человека, приводящие к совершению краж в период подросткового и раннего взросления, мотив-цель, причины, изменения настроения, психологические, социальные и экономические факторы, влияющие на настроение, обсуждаются нарушения преступности и детерминанты психологии в процессе самореализации.

Ключевые слова: Психология, зрелость, преступление, воровство, менталитет, причина, условия, следствие, преступник, определитель.

Abstract: In psychology, the psychological internal experiences of a person that lead to the commission of theft crimes in the periods of adolescence and early maturity, the motive-goal, the reasons, the changes in the mood, the psychological social and economic factors affecting the mood, the crime Disorders and determinants of psychology in the process of self-realization are discussed.

Keywords: Psychology, maturity, crime, theft, mentality, cause, conditions, consequence, criminal person, determinant.

Shaxs tomonidan o'g'irlik jinoyatlarini sodir qilish sabablari va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar nafaqat jinoyat protsessi, kriminologiya, kriminalistika fanlarida, shu bilan birga psixologiya, falsafa kabi qator ijtimoiy fanlar orqali ham o'rganiladi. Shu nuqtai-nazardan jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarini batafsil o'rganish, ularni tadqiq qilish ham huquqiy,

ham psixologik, ham falsafiy, shuningdek ijtimoiy yondashuvlarni talab qiladi. O'g'irlik jinoyatning sabablari va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni tadqiq etar ekanmiz, eng avvalo, "sabab" hamda "sharoit" so'zlarining lug'aviy ma'nolariga to'xtalib o'tish lozim. "Sabab" so'zi tilimizda bir qator ma'nolarda qo'llaniladi, ya'ni

- biror ish-harakat, voqea, hodisaning yuzaga kelishida, sodir bo'lishida omil bo'lgan boshqa voqea;

-biror ish-harakat yoki holat uchun asos bo'lgan narsa; biron bir vaqt mobaynida bo'lgan o'zgarishdan so'ng ikkinchi boshqa bir natijaning zaruran kelib chiqishini ta'minlovchi asosiy hodisa¹.

"Sharoit" so'zi esa ob'ektiv holdagi muayyan vaziyat, biror narsaning bo'lishiga ta'sir etuvchi holat, imkoniyat sifatida izohlanadi².

Mazkur tushunchalar lug'aviy ma'nolariga ko'ra ham o'zaro uzviy bog'liq. O'g'irlik jinoyatning sodir etilishiga asos bo'lgan sabablar, o'z navbatida, muayyan sharoitlarda ma'lum bir oqibatlarni keltirib chiqaradi. Sabab va oqibatning o'zaro bog'liqligi, bu ikki voqe'likning esa sharoit bilan uzviy aloqada ekanligi qonuniyati jinoyatchilikni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Professor Z.Zaripov jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarini quyidagicha tavsiflagan, ya'ni "jinoyatchilik sabablari ijtimoiy-psixologik voqe'lik sifatida jinoyatchilik hamda jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi o'ziga xos jarayonlar tizimidir, jinoyatchilikning sharoitlari esa o'ziga xos ravishda uning sabablari yuzaga kelishini jadallashtiruvchi holatlarni o'z ichiga oladi"³.

Jinoyati sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlar S.Danilovning fikricha, ob'ektiv va muqarrar ravishda jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar majmuidir⁴.

Har qanday jinoiy faoliyat ko'p jihatdan jinoyat sodir etgan shaxsning o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlariga uzviy bog'liqdir. Qonunga itoat qiladigan va o'zini-o'zi yuksak darajada boshqara oladigan halol inson uchun «jinoiy» vaziyatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Vaziyat o'z-o'zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat g'ayriijtimoiy fe'lga ega bo'lgan shaxsning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo'lishi mumkin, xolos⁵.

Jamiyatda o'g'irlik jinoyatining ijtimoiy psixologik sabab va sharoitlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lgan salbiy hodisa, voqea, jarayonlar keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan ob'ektiv va sub'ektiv sabab va sharoitlar mavjud, lekin ular turli darajada bo'ladi. Har qanday muayyan o'g'irlik jinoyati sodir qilinishi asosida yotgan ijtimoiy-psixologik hodisalar, ya'ni g'ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, ko'nikmalar, niyatlar, xulq-atvor sub'ektiv sabab va sharoitlar deb ataladi. Shaxsdan tashqarida bo'lgan va uning psixologiyasiga ta'sir qilib, unda g'ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, xulq atvorni shakllantiradigan, uni mustahkamlaydigan hodisa, voqea, jarayonlar esa ob'ektiv sabab va sharoitlar deb ataladi.

Professor Z.Zaripov o'g'irlik jinoyatga imkon bergan sabab va sharoitlarni miqyosiga ko'ra, mazmunan hamda o'z tabiati va ba'zi xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratilishini qayd etgan. Muallif o'g'irlik jinoyatning sabab va sharoitlarini miqyosiga ko'ra o'g'irlik jinoyatlarining umumiy holati bo'yicha, o'g'irlik jinoyatlarning turlari bo'yicha, alohida olingan o'g'irlik jinoyatlar bo'yicha kabi tasniflagan⁶. Shu bilan birga professor Z.Zaripov o'g'irlik jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi **kriminogen-determinantlar o'z mazmuniga ko'ra**, ijtimoiy-iqtisodiy,

g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy-ruhiy, tarbiyaviy, ijtimoiy boshqaruv yo'nalishidagi sabab va sharoitlardan iborat bo'lishi mumkinligini qayd etgan.

Psixolog olim Dj. Birren tadqiqotlarida «yetuklik» insonning qarilik davri bilan uyg'unlashadi. Dj. Birrenning takidlaganidek o'spirinlik – 12-17 yoshlar oralig'ida va erta yetuklik – 17-25 yoshlar oralig'idagi¹ davrlarda psixikasidagi o'zgarishlar ya'ni ishonuvchanlik, uquvsizlik, irodasizlik, imkoniyatsizlik, xissiyotlarga berilishning kuchayishi, xayoliy kechinmalarning kuchliligi sababli shaxsning ruxiyatidagi, tafakkuridagi, istaklaridagi va mayllaridagi moddiy dunyoga xaddan ziyod qizikishning ortishi va tezda barcha moddiy qiymatliklarni, mol-dunyoni o'ziniki qilishga, qanday yo'l bilan bo'lsada ongida badavlat shaxs siymosini yaratishga bo'lgan ruxiyatidagi intilishning natijasida shaxs o'zi kelgusidagi huquqiy oqibatni anglagan holda jismoniy yoki yuridik shaxsning mol-mulkini, yoki moddiy kimatliklarini o'g'irlash motivatsiyasi ko'chayadi. Har qanday xolat vaziyatga qaramasdan yukoridagi psixologik mayllarini qondirish va realizatsiya qilish maqsadida psixologik sub'ektiv va ob'ektiv sabablarga ko'ra o'g'irlik jinoyati sodir qiladi. Shaxs o'g'irlik jinoyatini sodir qilish jarayonida qilmishning jinoiy yo'l bilan g'ayri qonuniyligini o'z-o'zi to'liq anglagan va tushungan holda o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qiladi. Ushbu jinoyat sodir etish jarayonida shaxsning ruxiyatida nafsning quliga aylanib qatiyatsizlik, ko'rkinch, yashirin tarzda, jirkanch holatda g'ayri qonuniy maqsadini amalga oshirish uchun tish-tirnog'i bilan o'g'irlik jinoyatni sodir qiladi. Shaxs ilk bor jinoyat sodir qilgandan so'ng sodir qilgan jinoyati oshkor bo'lib qolish extimollar nazariyasidan kelib chiqqan holda uning ruxiyatida jinoyatchi shaxs menligi vujudga keladi va ruxiyatida kuchli qo'rqinch paydo bo'lib barcha shaxslardan xattoki eng yaqinlaridan ham yashirinish xissi mo'loqat o'rnatmaslik xissi juda rivojlanadi. Yon atrofdagi shaxslarga g'araz niyatlarda qarashlar paydo bo'lib yon atrofdagi barcha shaxslar uning sodir qilgan o'g'irlik jinoyatini oshkor qilish extimoli bo'lgan shaxs sifatida gavdalanadi va tabiiyki jizzakilik, qo'rquv, yashirinlik, yakkalik xislari paydo bo'ladi. Eng achinarlisi o'g'irlik natijasida egallab olgan moddiy qiymatliklarni kanday kay tartibda va usilda ishlata olish imkoniyatini izlash realizatsiya qilish ya'ni muommolari yuzaga keladi. Ushbu yuzaga kelgan muommolar natijasida va ichki kechinmalari natijasida jinoyatchi shaxs psixologiyasida beporvolik yoki tartibsizlik yuzaga keladi va birdaniga moddiy qimmatliklarni xech qanday ongsiz, uysiz sarflash jarayoniga o'tadi. Natijada sodir etgan o'g'irlik jinoyatini fosh bo'lishiga o'zi anglamagan holda sabachi bo'ladi.

Tasniflar qatoriga jinoyatchilikka sabab bo'ladigan nazoratsizlik, loqaydlik, sovuqqonlik kabi omillarni ham kiritish maqsadga muvofiq. Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarning tushunchasi, mazmun-mohiyati, tasnifi va ahamiyati xususida o'rganilgan muhim ma'ulumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- birinchidan, jinoyatchilik sabablari atrof-muhitda kechayotgan o'ziga xos jarayonlar tizimi bo'lib, mavjud ijtimoiy-psixologik voqe'liklar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asosida jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi;

- ikkinchidan, jinoyatchilik sabablari ma'lum vaqt oralig'ida shakllangan, rivojlangan, yetilgan ko'p omilli, ya'ni sabablar zanjiri sifatida yoki qisqa vaqt oralig'ida ma'lum bir aniq voqe'lik ta'sirida paydo bo'lgan bir omilli sabablardan iborat bo'ladi;

- uchinchidan, jinoyat sodir bo'lishiga imkon yaratgan sharoitlar uning sabablari yuzaga kelishini jadallashtiradi yoxud jinoyatning sabablari yuzaga chiqib faol harakatga kelishi uchun qulay fursat, qulay vaqt omili sifatida namoyon bo'ladi.

Pisixologiyada yetuklikning o'spirinlik va erta yetuklik davrlarida shaxsning o'g'irlik jinoyatlari sodir qilish shart-sharoitlari, sabab va oqibatlarini, shaxslarning o'zini-o'zi anglashdagi determinantlari asosida o'g'irlik sodir etgan jinotchi shaxs psixologik portretini o'rganish, uning psixologik kesinmalarini aniqlashga yordam beradi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'g'irlik jinoyat sodir etgan yoki etish jarayonidagi shaxslarning psixologik ijtimoiy iqtisodiy sabablar, ijtimoiy turmush tarzidagi shaxslararo munosabatlar, shart-sharoitlarini, ko'pincha, ruhiy tushkunlik, yetishmovchilik, ishsizlik, oiladagi tarbiya, nafsga bo'lgan moyillarning kuchayishi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, kelgusida o'g'irlik jinoyatlarini sodir etilishini oldini olish va shaxsni qo'llab-quvvatlash, jinoyat oqibatlarini huquqiy nuqtai nazardan tushuntirish. Buning uchun o'smirlik ya'ni o'rta ta'lim, o'rta maxsus davrlarida, yetuklikning o'spirinlik va erta yetuklik davrlarida uyushgan yoshlarga pedagoglar va amliyotchi xodimlar bilan birgalikda o'quv jarayonlarida uchrashuvlar o'tkazish, umuman olganda, tushuntirish va o'rgatish ishlarini ko'chaytirish amaliy darslarga amaliyotchi XMQO xodimlarini muntazam ravishda qatnashtirish hamda xamkorlikda g'irlik jinoyati sodir etish extimoli bo'lgan shaxslar psixologik portretini o'rganish muhim yo'nalishi bo'lib, jinoyatlar bilan bog'liq jarayonlarni chuqurroq anglash, va oldini olishga yordam beradi.

References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. T-3. B-408.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. T-4. B-549.
3. Kriminologiya: Darslik / Zaripov Z.S., Pulatov Yu.S., Avanesov G.A. va boshq.; prof Z.S. Zaripov taxriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – B. 65.
4. Danilova S.I. Ustanovlenie i ustranenie prichin i usloviy, sposobstvovavshix soversheniyu prestupleniya, v stadii predvaritelnogo rassledovaniya // diss., Moskva, 2001. Str. -37.
5. Dushanov R.X. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi: O'quv qo'llanma / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. -B. 15.
6. Qarang: Kriminologiya: Darslik / Zaripov Z.S., Pulatov Yu.S., Avanesov.G.A. va boshq.; prof Z.S. Zaripov taxriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – B. 67.
7. Q.Abdurasulova, S.Niyozova. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari: magistratura yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma / Toshkent davlat yuridik instituti, 2005. B. – 40. (Q. Abdurasulova, S. Niyozova. Crime and personality problems of a criminal: a textbook for magistracy / Tashkent State Law Institute, 2005. P. - 40.)